

TEKSTIL SANOATIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASHDA INNOVATSION FAOLIYATNING O'RNI VA AHAMIYATI

Djurayeva Dilnoza Davronovna

Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD.

Hamzayeva Sumbula Komil qizi

Buxoro davlat universiteti talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada tekstil sanoatida raqobatbardoshlikni ta'minlashda innovatsiyalarning ahamiyati o'rganildi. Tadqiqot davomida Xitoy va O'zbekiston tekstil sanoatining rivojlanish ko'rsatkichlari tahlil qilindi hamda innovatsiyalarni joriy etish natijalari baholandi. Olingan natijalar raqamlashtirish, sun'iy intellekt va aqlli ishlab chiqarish texnologiyalarining samaradorlikni oshirgani, xarajatlarni kamaytirgani va mahsulot sifatini yaxshilaganini ko'rsatdi. Shuningdek, innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi va ularning tarmoq raqobatbardoshligini mustahkamlashdagi ahamiyati asoslandi.

Kalit so'zlar: tekstil sanoati, innovatsiya, raqobatbardoshlik, raqamlashtirish, sun'iy intellekt, ERP tizimi, eksport, texnologik modernizatsiya.

Аннотация

В статье было исследовано значение инноваций в обеспечении конкурентоспособности текстильной промышленности. В ходе исследования были проанализированы показатели развития текстильной отрасли Китая и Узбекистана, а также оценены результаты внедрения инновационных решений. Полученные результаты показали, что цифровизация, искусственный интеллект и технологии умного производства повысили производительность, снизили затраты и улучшили качество продукции. Также были разработаны практические рекомендации по поддержке инновационного развития и обоснована их роль в укреплении конкурентоспособности отрасли.

Ключевые слова: текстильная промышленность, инновации, конкурентоспособность, цифровизация, искусственный интеллект, ERP-система, экспорт, технологическая модернизация.

Abstract

This article examined the role of innovation in improving the competitiveness of the textile industry. The study analyzed the development indicators of the textile sectors of China and Uzbekistan and evaluated the outcomes of innovation implementation. The findings demonstrated that digitalization, artificial intelligence, and smart manufacturing technologies increased productivity, reduced costs, and improved product quality. Practical recommendations for supporting innovation-driven development were proposed, and their contribution to strengthening industrial competitiveness and expanding export potential was substantiated.

Keywords: textile industry, innovation, competitiveness, digitalization, artificial intelligence, ERP system, export, technological modernization.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining chuqurlashishi va xalqaro raqobatning tobora kuchayib borishi tekstil sanoati korxonalarini doimiy ravishda yangi texnologik va boshqaruv yechimlarini izlashga undamoqda. Bugungi kunda jahon tekstil bozori hajmi 660 milliard dollardan oshib, unda 75 milliondan ortiq kishi mehnat qiladi. Rivojlangan mamlakatlarda sanoat korxonalarining 40-50 foiz tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga yo'naltirilgan innovatsion loyihalarni amalga oshirmoqda, natijada ishlab chiqarish samaradorligi o'rtacha 30-50 foizga, xarajatlar esa 20-40 foizga kamaymoqda.

Tekstil sanoati ko'plab mamlakatlar, jumladan O'zbekiston iqtisodiyotida muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi. 2025-yilda O'zbekiston to'qimachilik sanoatida ishlab chiqarish hajmi 134 trillion so'mga yetdi va o'tgan yilga nisbatan 6,3 foizga oshdi. Sohaga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi 2,1 milliard dollarni tashkil etdi. Eksport hajmi esa 2,5 milliard dollarga yetkazilib, ijobiy o'sish qayd etildi. 2026-yilga mo'ljallangan ko'rsatkichlar ishlab chiqarish hajmini 147 trillion so'mga, eksport hajmini 3,3 milliard dollarga yetkazish va tarmoqqa 2,2 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni o'z ichiga oladi. Sohada band bo'lgan aholi soni 623 ming kishini tashkil etadi va 650 mingga yetkazish rejalashtirilgan. Mamlakat paxta xom ashyosi ishlab chiqarish bo'yicha jahonda 7-o'rinni egallab, yiliga taxminan 1 million tonna paxta ishlab chiqaradi. Biroq, O'zbekistonning jahon tekstil bozoridagi ulushi hali 1,5 foizdan oshmayapti. Bu sohaning salohiyatidan to'liq foydalanilmayotganini va innovatsion o'zgarishlarga ehtiyoj borligini ko'rsatadi.

Xitoy 2025-yilda jahon tekstil va tikuvchilik mahsulotlari savdosining 30 foizdan ortig'ini tashkil etib, dunyodagi eng yirik yetkazib beruvchi davlat hisoblanadi. Xitoy oliy innovatsion rivojlangan hududlarida o'rtacha R&D intensivligi 4,5 foizga yetgan bo'lsa, Xitoyning yetakchi korxonalari bu ko'rsatkichni 6-8 foizga oshirmoqda. Bu ularga har yili 30-40 foizga yangi turdagi mahsulotlarni bozorga chiqarish imkonini bermoqda. 2025-yilning birinchi sakkiz oyida Xitoy to'qimachilik korxonalarining umumiy daromadi 15155,2 milliard yuanga (taxminan 2,2 trillion dollar) yetgan.

Innovatsion faoliyat esa ushbu vazifani hal etishning asosiy vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Aynan innovatsiyalar orqali korxonalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi, mahsulot sifatini yaxshilashi, xarajatlarni kamaytirishi va yangi bozorlarga chiqish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish va aqlli texnologiyalarni joriy etgan kompaniyalarda o'rtacha ishlab chiqarish samaradorligi 30-50 foizga, xarajatlar 20-70 foizga kamayadi, sifat ko'rsatkichlari esa 95-99 foizga yetadi.

Biroq, innovatsiyalarni joriy etishda turli to'siqlar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish tizimli yondashuvni talab qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, korxonalarining 45-60 foizi moliyaviy resurslarning yetishmasligi, 30-40 foizi malakali kadrlar tanqisligi, 20-25 foizi esa eskirgan texnologik bazaga ega. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada tekstil sanoatida raqobatbardoshlikni ta'minlashda innovatsiyalarning o'ziga xos jihatlari tahlil qilinib, mavjud to'siqlar va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari

yoritilgan. Tadqiqot natijalari soha mutaxassisleri va korxonalar rahbarlari uchun amaliy ahamiyatga ega.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda tekstil sanoatida innovatsiyalarning raqobatbardoshlikka ta'sirini baholash uchun qiyosiy tahlil, statistik tahlil va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida O'zbekiston va Xitoy tekstil sanoatining rivojlanish ko'rsatkichlari, eksport hajmi, investitsiyalar oqimi hamda innovatsion faoliyat natijalari o'rganildi. Rasmiy statistik ma'lumotlar, xalqaro hisobotlar va sohaviy manbalar asosida ishlab chiqarish samaradorligi, xarajatlar dinamikasi va texnologik yangilanish ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Innovatsiyalarni joriy etish natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy samaralar umumlashtirildi. Raqamlashtirish, ERP tizimlari, sun'iy intellekt va aqlli ishlab chiqarish texnologiyalarining amaliy ahamiyati baholanib, ularni keng qo'llash bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Tekstil sanoati jahon iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Global tekstil bozori hajmi 2025 yilda 660,13 milliard dollarni tashkil etgan va 2026 yilga borib 702,97 milliard dollargacha o'sishi kutilmoqda. Bu bozorda Xitoy yetakchi mavqega ega bo'lib, jahon savdosining 30 foizdan ortig'ini o'z zimmasiga olgan.

Xitoy Bojxona bosh boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025 yilda Xitoyning tekstil va tikuvchilik mahsulotlari eksporti 293,77 milliard dollarni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2024 yilga nisbatan 2,4 foizga kamaygan. To'qimachilik mahsulotlari eksporti 142,6 milliard dollarga yetib, 0,5 foizga o'sgan. Tayyor kiyim-kechak eksporti esa 151,12 milliard dollarni tashkil qilib, 5,0 foizga kamaygan. Eksportdagi pasayish asosan jahon iqtisodiy o'sishining sekinlashishi va AQShning boj siyosati bilan bog'liq. AQShga eksport 449,3 milliard dollarni tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 11,8 foizga kamaygan. ASEAN davlatlariga eksport hajmi 499 milliard dollarga yetib, 6,1 foiz pasayish kuzatilgan. Shu bilan birga, Bir belbog' bir yo'l davlatlariga eksport hajmi 1596,3 milliard dollarni tashkil qilib, umumiy eksportning 54,3 foizni tashkil qilgan.

Xitoyning rivojlangan mintaqalarida to'qimachilik korxonalari innovatsiyalarni joriy etishda katta muvaffaqiyatlarga erishgan. Jiangxi Weimian tekstil guruhi 5G plus aqlli fabrika loyihasini joriy etgan. Natijada mehnat xarajatlari 70 foizga kamaygan, ishlab chiqarish samaradorligi 30 foizga oshgan va 200 ga yaqin korxonada bu yechimlar joriy qilingan. Qishloq joylashgan tikuvchilik korxonasida raqamli texnologiyalar qo'llanilishi hisobiga mehnat xarajatlari 60 foizga kamaygan, ishlab chiqarish samaradorligi 40 foizga oshgan va buyurtma muddatlari 30 foizga qisqargan. Xiajin tumanidagi korxonada asbob-uskunalarni almashtirish va ishlab chiqarish liniyasini o'zgartirish loyihasidan so'ng ishlab chiqarish samaradorligi 50 foizga oshgan, energiya xarajatlari 36 foizga kamaygan, bir tonna ipni qayta ishlash xarajatlari 1500 yuanga tushgan. Nantong shahrida esa butunlay qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanadigan karbon neytral aqlli fabrika ishga tushirilgan bo'lib,

ishlab chiqarish samaradorligi 30 foizga oshgan va umumiy energiya xarajatlari 20 foizga kamaygan.



1-rasm. Innovatsiyalarning samaradorlik ko'rsatkichlari¹.

Xitoyda 2025 yilda mahsulot ishlab chiqarish o'sishi sanoatni boshqarish darajasida 1,8 foizni tashkil etgan. To'qimachilik sanoatida 3,0 foiz, kimyo tolalari sanoatida 8,2 foiz o'sish qayd etilgan bo'lsa, tikuvchilik sanoatida 3,0 foiz pasayish kuzatilgan. Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi to'qimachilik sanoatida 77,5 foiz va kimyo tolalari sanoatida 85,8 foizni tashkil etgan.

O'zbekiston tekstil sanoati 2025 yilda sezilarli natijalarga erishdi. Sanoatning ishlab chiqarish hajmi 134 trillion so'mga yetib, o'tgan yilga nisbatan 6,3 foizga oshdi. Tarmoqqa jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi 2,1 milliard dollarni tashkil etdi. Eksport hajmi esa 2,5 milliard dollarga yetib, ijobiy o'sish qayd etildi. Yakuniy tayyor mahsulot eksporti 18,5 foizga oshgani alohida e'tiborga loyiq. Sohada band bo'lgan aholi soni 623 ming kishiga yetdi. O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlari 75 ta davlatga eksport qilingan. Asosiy savdo hamkorlar qatorida Rossiya, Turkiya, Belarus, Qirg'iziston, Qozog'iston, Xitoy, Germaniya va Birlashgan Arab Amirliklari bor. Yangi bozorlar sifatida Jazoir, Angola, Gretsiya va Quvayt o'zlashtirildi. Eksport qiluvchi korxonalar soni 1409 taga yetdi, ulardan 502 tasi yangi korxonalar bo'lib, ular 203,0 million dollarlik eksport hajmini yaratdi.

2026 yilga mo'ljallangan rejalarga ko'ra ishlab chiqarish hajmini 147 trillion so'mga, eksportni esa 3,3 milliard dollarga oshirish maqsad qilingan. Tarmoqqa 2,2 milliard dollar xorijiy investitsiyalar jalb qilish rejalashtirilgan. Bu hisobiga 207 ming tonna sintetik va aralash ip, 397 million kvadrat metr gazlama, 224 million dona tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish va 108 million kvadrat metr mato bo'yash bo'yicha qo'shimcha quvvatlar barpo etiladi. Shu bilan birga, tarmoqni barqaror rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan omillar mavjud. Paxta tolasiga bo'lgan talabning

¹ Manba : <http://scgta.org.cn/news/economic/59836.html>


bir qismi import hisobiga qoplanayotgani, moliyaviy resurslar qiymatining yuqoriligi, tashqi bozorlarda logistika xarajatlari ortishi va ayrim yoʻnalishlarda malakali mutaxassislar yetishmasligi dolzarb muammolar sifatida qayd etilgan.

1-jadval

Oʻzbekiston tekstil sanoatining 2025 yildagi asosiy koʻrsatkichlari¹.

Koʻrsatkich	Qiymati	Oʻzgarish
Ishlab chiqarish hajmi, trln soʻm	134	6,3 foiz
Eksport hajmi, mlrd AQSH dollar	2,5	ijobiy
Xorijiy investitsiyalar, mlrd AQSH dollar	2,1	-
Bandlar soni, ming kishi	623	27 ming reja
Eksportchi korxonalar, dona	1409	502 tasi yangi

Ushbu muammolarni hal etish maqsadida 2026 yilda bir qator chora-tadbirlar koʻriladi. Korxonalariga 200 million dollar miqdorida imtiyozli kreditlar ajratish, 138 ta korxonani moliyaviy sogʻlomlashtirish va 100 ta yangi korxonani eksport faoliyatiga jalb etish rejalashtirilgan. Xalqaro standartlar va sertifikatlarni joriy etishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. 60 ta korxonada Better Work, BCI, FWF va Organic EU dasturlari ishga tushiriladi. Zamonaviy tekstil laboratoriyasi tashkil etilib, unda tayyor mahsulotlar sifati 24 parametr boʻyicha tahlil qilinadi. 40 ta korxonada ERP tizimlari va sunʼiy intellektni joriy etish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish va samaradorlikni oshirish koʻzda tutilgan.



2-rasm. Xitoy tekstil eksporti bozorlar kesimida², mlrd AQSH dollar

Xalqaro tajriba shuni koʻrsatadiki, innovatsiyalarni joriy etgan korxonalarda mehnat xarajatlari 60-70 foizga kamayadi, ishlab chiqarish samaradorligi 30-50 foizga oshadi, energiya xarajatlari 20-36 foizga kamayadi, buyurtma muddatlari 30 foizga

¹ Manba : Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil yakunlariga bagʻishlangan maʼruzasi

² Manba : <https://www.eccpit.com/news/Y21zcG86MjAyNDY>

qisqaradi va mahsulot sifati 95-99 foizga yetadi. Xitoy tekstil korxonalarida tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari xarajatlarining ulushi 4,0-4,5 foizni tashkil etmoqda. 2025 yilda integral patent talabnomalari soni bo'yicha 38 295 ta patent so'rovi qayd etilgan.

Xulosa qilib aytganda, innovatsiyalar, ayniqsa raqamlashtirish va sun'iy intellektni qo'llash, ishlab chiqarish samaradorligini 30-50 foizga oshirish, xarajatlarni 20-70 foizga qisqartirish va mahsulot sifatini xalqaro standartlarga mos holga keltirish imkonini beradi. O'zbekiston tekstil sanoati 2025 yilda ishlab chiqarish hajmini 134 trillion so'mga yetkazib, eksportni 2,5 milliard dollarga oshirgan. Tarmoqni innovatsion rivojlantirishda davlat tomonidan ajratilayotgan 200 million dollarlik imtiyozli kreditlar, xorijiy standartlarni joriy etish, zamonaviy laboratoriyalar tashkil etish va 40 ta korxonada ERP hamda sun'iy intellekt tizimlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. 2026 yilga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlar - ishlab chiqarish hajmini 147 trillion so'mga va eksportni 3,3 milliard dollarga yetkazish - mazkur islohotlarning amalga oshirilishi bilan bevosita bog'liq. Xitoy tajribasi shuni ko'rsatdiki, innovatsion faoliyatni joriy etish raqobatbardoshlikni oshirishning muhim mexanizmi bo'lib, uning muvaffaqiyati asosan investitsiyalar oqimi va texnologik modernizatsiyaga bog'liq. Xalqaro miqyosda joriy qilinayotgan karbon neytral va aqlli fabrikalar konsepsiyalari O'zbekiston uchun qisqa vaqt ichida muhim yo'nalish sifatida qaralishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, innovatsiyalar tekstil sanoatida raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Xitoy tajribasida texnologik yangilanishlar ishlab chiqarish samaradorligini 30-50 foizga oshirgan, xarajatlarni 20-70 foizga kamaytirgan. O'zbekiston tekstil sanoati 2025 yilda 134 trln so'm mahsulot ishlab chiqarib, eksportni 2,5 mlrd dollarga yetkazdi, biroq innovatsiyalar darajasi pastligicha qolmoqda. Asosiy to'siqlar: moliyaviy cheklovlar, kadrlar yetishmasligi va eskirgan texnologiyalar.

Quyidagi takliflar beriladi. Birinchidan, 40 ta korxonada ERP va sun'iy intellektni joriy etishni 100 tagacha kengaytirib, har biriga 500 ming dollargacha imtiyozli kredit ajratish. Ikkinchidan, innovatsion loyihalar uchun 50 mln AQSH dollarlik grant jamg'armasini tuzish. Uchinchidan, yiliga 2 ming nafar mutaxassisni xorijda malaka oshirish. To'rtinchidan, klasterlar sonini 25 taga yetkazib, har birida namuna aqlli fabrika qurish. Beshinchidan, eksportchilar uchun ISO sertifikat olish xarajatlarining 50 foizini subsidiyalash. Oltinchidan, logistika xarajatlariga 20-30 foiz chegirma belgilash. Ushbu chora-tadbirlar 2026 yilda ishlab chiqarish hajmini 147 trln so'mga, eksportni 3,3 mlrd AQSH dollarga yetkazish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil yakunlariga bag'ishlangan ma'ruzasi. - Toshkent, 2025.
2. Xitoy Xalq Respublikasi Bojxona Bosh boshqarmasi. 2025 yil to'qimachilik va tikuvchilik mahsulotlari eksporti to'g'risidagi hisobot. - Pekin, 2026.

3. Xitoy To‘qimachilik va Tikuvchilik Mahsulotlari Importchilari va Eksportchilari Palatasi. 2025 yil statistik tahlil. - Pekin, 2026.

4. Renmin Van Yudu to‘qimachilik sanoatining raqamli transformatsiyasi: kichik matodan katta “to‘qimachilik intellekti” sari. - 2025.

5. Xitoy Moliyaviy Axborot Tarmog‘i. Shandun viloyati, Syatszin tumani: “Aqlli modernizatsiya va raqamli transformatsiya” an’anaviy to‘qimachilik sanoatini yangilamoqda - 2025.

6. China Daily. Nantong opens China’s first carbon-neutral smart spinnery - 2025.

7. Xodjaeva G.A. O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoati tarmog‘ini rivojlantirish yo‘nalishlari. - Best Publication, 2024.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**